

**MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI OMONATLAR BO'YICHA
SHARTNOMA № _____**

« _____ » _____ yil **Toshkent shahri**
Keyingi o'rinlarda "Omonatchi" deb ataluvchi
_____, (Omonatchining I.Sh.O.)
bir tarafdin va keyingi o'rinlarda "Bank" deb ataluvchi "Asaka" banki (OAJ)
_____ filiali, Nizom va _____ yil " _____ " _____ dagi _____ - sonli
_____ ishonchnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi filial boshqaruvchisi
_____ nomidan, ikkinchi tarafdin ushbu
shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Omonatchi o'z bo'sh pul mablag'larini _____ so'm
miqdoridagi summani Bankka omonatga qo'yadi, Bank esa vaqtinchalik ushbu
mablag'larni " _____ " omonat turi bo'yicha _____ yil " _____ " _____ dan _____ yil
" _____ " _____ gacha _____ muddatga, **O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligida 2011 yil
4 martda 2205-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida
deposit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga** va
mazkur Shartnomaga muvofiq yillik _____ foiz ustama to'lash sharti bilan Bank
omonatiga joylashtirish uchun qabul qiladi.

1.2. Omonat summasi Bankka kelib tushgan paytdin e'tiboran Shartnoma kuchga
kiradi.

2. SHARTNOMANING SHARTLARI

2.1. Omonat bo'yicha foizlarning to'lanish shartlari
quyidagicha: _____

2.2. Bank omonati bo'yicha **foizlarni** hisoblab yozish mablag'lar Bankka topshirilgan
kunning ertasidan boshlanadi va uni omonatchiga qaytarib beriladigan yoki mablag'lar
Omonatchining hisobvarag'idin boshqa sabablarga ko'ra hisobdan chiqariladigan kundan
boshlabbir kun avval to'xtatiladi.

Bir oy hisobi uchun amaliyot o'tkazilayotgan kalendar oyning barcha kunlari hisobga
olinadi (bir yilda 365 kun bazaviy muddat sharti bilan). Hisoblab yozilgan foizlarni va
asosiy summani olish Omonatchi tomonidan omonatni saqlashning asosiy muddati
tugagan kunning ertasiga amalgam oshirilishi mumkin.

2.3. **Agar muddatli omonat saqlash muddati tugagach** yopilmasa yoki qayta
rasmiylashtirilmasa, Bankda turgan kunlari uchun «Talab qilib olinguncha» omonatining
amaldagi foiz ustamasi bo'yicha foiz hisoblanadi.

Omonat bo'yicha foizlarning to'lanish shartlari omonat bo'yicha amaliyotlarni amalga
oshirish Qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.5. Agar foizlarni to'lash sanasi **bank ish kuni bo'magan kunga** to'g'ri kelib qolsa,
to'lov keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi. Bunda ish kuni bo'lmagan kunlar uchun
hisoblab yozilgan foizlarning summaci «Talab qilib olinguncha» omonatining amaldagi
foiz ustamasi bo'yicha amalgam oshiriladi.

3.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Omonatchi quyidagilarga majbur:

3.1. O'z muddatli deposit hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritishga;

3.2. Agar Omonatchi muddatli omonatni muddati tugagunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bulsa, u o'zining bu niyatidan Bankni omonatni olishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim;

3.3. Bankda belgilangan ish tartib-qoidalariga, to'lov xujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etishning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining meyoriy xujjatlarida belgilangan qoidalariga rioya etishga;

3.4. Omonat daftarchasini but saqlashga va uni omonat muddati tugagach yoki shartnoma muddatidan avval to'xtatilgan holda qaytarib berishga. Daftarcha yo'qotilgan holda Bankka bu borada xabar berishga;

Omonatchi quyidagilarga haqli:

3.5. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati tugagach omonat summasini, hisoblab yozilgan foizlari bilan qaytarilishini omonat yopilishidan bir kun oldin Bankni ogohlantirgan holda talab qilishga;

3.6. Omonatni shaxsan o'zi yoki ishonchli vakili (tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida) orqali tasarruf etishga;

Bank o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

3.7. Omonatchining Bankdagi muddatli omonat hisobvarag'iga kiritilgan pul mablag'lari but saqlanishini ta'minlash;

3.8. Omonatchi bank depozitiga kiritgan pul mablag'lariga oid foizlarni hisoblab yozish va foiz ko'rinishidagi daromadlarni to'lash;

3.9. Omonatchiga pul mablag'larini hisoblab yozilgan foizlari bilan to'liq hajmda qaytarilishini ta'minlash;

3.10. Mijoz hisobvarag'iga kiritilgan pul mablag'lari summasini tasdiqlovchi №_____raqamli omonat daftarchasini yozib berish;

3.11. Omonatchiga omonat shartlarini tushuntirish;

3.12. Omonatga oid sirni saqlash va u bo'yicha ma'lumotlarni faqat qonunda kuzda tutilgan holatlarda taqdim etish;

3.13. Shartnoma Omonatchining talabi bilan muddatidan avval to'xtatilgan taqdirda, omonatga kiritilgan pul mablag'larini to'liq hajmda va Bank tomonidan «Talab qilib olinguncha» omonatlariga to'lanadigan foiz ustamasi bilan qaytarib berish.

Bank quyidagilarga haqli:

3.14. Omonatchilar va mijozlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun talablariga asosan aholi omonatlarining mavjudligini, ularning omonat daftarchalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan har chorakda kamida bir marta to'liq inventarizasiyadan o'tkazish.

4.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. O'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holda, aybdor taraf O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka ega bo'ladi.

5.BOSHQA SHARTLAR

5.1. Mazkur shartnoma har ikki taraf tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va taraflar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarganlaridan keyin o'z kuchini yo'qotadi.

5.2.Mazkur shartnomaning shartlari taraflarning o'zaro kelishuvi asosida qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishi mumkin.

5.3.Omonatchi shartnomani istalgan paytda,3.13-band shartlari asosida omonat mablag'larini to'liq qaytarilishi yo'li bilan bir tarafdama bekor qilishi mumkin.

5.4.Ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.Taraflar kelishuv bitimiga kelmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal etiladi.

5.5.Shartnoma ikki nushada tuziladi, har ikkisi ham bir xilda yuridik kuchga ega.

5.6.Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

6.TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA IMZOLARI:

BANK:

«ASAKA» banki (OAJ) _____
filiali manzili: _____

«ASAKA» banki (OAJ) _____
_____filiali Boshqaruvchisi

_____ Muxr: _____
Imzo: _____ Bosh

buxgalter _____ Yurist _____
Omonat bo'limi

boshlig'i _____

OMONATCHI:

F.I.O. _____

Fuqaroligi: _____

Tug'ilgan sanasi: _____

Pasport: (seriya va
raqami) _____ (qachon

berilgan) _____ (kim

tomonidan) _____

Imzo: _____